



O‘zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-may)



Dastlabki ma‘lumotlar bo‘yicha 2020- yilning yanvar-may oylarida respublika korxonalaridan 131,9 trln. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 97,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (79,6 %) ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo‘lib, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 18,9 % ga va suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda - 11,4 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 1,5 % ga hamda elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashning - 13,3 % ga o‘sishi kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15,1 trln. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,4 % ini tashkil etdi.



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O‘tgan yilning shu davriga nisbatan ko‘mir qazib olish - 10,2 % ga hamda chaqiq tosh - 9,9 % ga, neft qazib olish 2,0 % ga oshgan bo‘lsa, shag‘al qazib olish 64,3 % ga, gaz kondensati - 29,2 % ga, kaolin - 22,8 %, hamda tabiiy gaz qazib olish -17,2 % ga pasaygan.




Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-may	2020- yil yanvar-may	Farqi +/-
Ko‘mir, <i>ming t.</i>	1 239,7	1 366,7	127,0
Neft, <i>ming t.</i>	290,4	296,3	5,9
Tabiiy gaz, <i>mln. kub.m.</i>	25 515,6	21 137,6	-4 378,0
Gaz kondensati, <i>ming t.</i>	875,9	620,0	-255,9
Chaqiq tosh, <i>ming t.</i>	651,9	716,3	64,4
Shag‘al, <i>ming t.</i>	150,2	53,6	-96,6
Kaolin, <i>ming t.</i>	102,3	78,9	-23,3



Ishlab chiqaradigan sanoat


2020- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 105,0 trln. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 79,6 % ini tashkil etdi.





**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,7 % ni (2019- yil yanvar-may oylarida - 1,3 %), o‘rta-yuqori texnologiyali - 24,5 % (25,6 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 38,8 % (37,5 %) va quyi texnologiyalisi - 35,0 % (35,6 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta‘mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 19,6 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 100,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 25,7 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,4 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 16,3 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 16,2 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,8 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 9,7 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,4 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati



2020- yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 441,3 ming tonna avtomobil benzini (2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 13,4 % ga o‘sgan), 178,0 ming tonna kalava ip (18,4 %), 769,7 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (22,8 %), 72,7 mln. litr pivo mahsulotlari (8,2 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘shish sur‘atlari kuzatildi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-may	2020- yil yanvar-may	Farqi +/-
Yengil avtomobillar, <i>dona</i>	98 780	117 925,0	19 145
Yuk avtomobillari, <i>dona</i>	2 044,0	1 443,0	-601
Avtomobil dvigatellari, <i>ming dona</i>	78,3	94,2	15,9
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, <i>ming t.</i>	627	769,7	142,7
Paxta tolasi, <i>ming t.</i>	260,1	315,0	32,5
O‘simlik yog‘i (tozalangan), <i>ming t.</i>	92,9	82,7	-10,2



Avtobus ishlab chiqarish sanoati (dona)



Respublikada 2020- yilning yanvar-may oylarida 448,0 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 41,2 % ga pasaygan.

Shuningdek, 2020- yilda eng yuqori ko‘rsatkich mart oyida kuzatilib, 176 donani tashkil etgan.



Avtomobil dvigatellari ishlab chiqarish (ming dona)


Respublikada avtomobil dvigatellari ishlab chiqarish sanoatida 94,2 ming dona dvigatellar ishlab chiqarilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 20,3 % o‘shishga erishildi.

Shuningdek, 2020- yilda eng yuqori ishlab chiqarish mart oyida kuzatildi (22,5 ming dona).





Yuk avtomobillari ishlab chiqarish sanoati
(dona)



Respublikada 2020- yil yanvar-may oylarida jami 1 443 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarish sanoatida ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 29,4 % ga pasaygan.

Shuningdek, 2020- yilda eng yuqori ishlab chiqarish sur'ati mart oyida kuzatilib, 378 donani tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganda yengil avtomobillar - 1,2 m., avtomobil dvigatellari - 1,2 m., avtomobil benzini - 1,1 m., yurgizuvchi g'ildiraklar, ularning qismlari va jihozlari - 1,1 m., radiatorlar, shovqin so'ndirgichlar va chiqarish quvurlari, ulovchi mexanizmlar, rul chamberaklari, rul kolonkalari va mexanizmlarining karterlari va ularning qismlari - 1,4 m. ga oshdi.


Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2020- yil yanvar-may oylarida 29 408 dona "Nexia T-250" (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,6 %), 30 125 dona "Cobalt" (152,0 %), 21 310 dona "Lacetti-Gentra" (132,1 %), 22 150 dona "Damas" (119,0 %), 12 162 dona "Spark" (154,9 %) hamda 2 770 dona "Labo" (85,0 %) avtomobillari ishlab chiqarildi.



O'zbekiston Respublikasida yengil avtomobillar
ishlab chiqarish sanoati
(dona)



«Cobalt»



«Nexia T-250»



«Damas»



«Gentra»



«Spark»



«Labo»



**O‘zbekiston Respublikasida traktor
ishlab chiqarish sanoati**
(dona)



2020- yilning yanvar-may oylarida qishloq xo‘jaligi texnikasi ishlab chiqarish sanoatida, jami 623 dona traktorlar ishlab chiqarildi, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 martaga oshgan.


Shuningdek, 2020- yilda eng yuqori ishlab chiqarish fevral oyida kuzatildi (234 dona).



**O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi
texnikasi ishlab chiqarish sanoati,**
(dona)

2020- yilning yanvar-may oylarida qishloq xo‘jaligi texnikasi ishlab chiqarish sanoatida, jami 473 dona kultivatorlar ishlab chiqarildi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 44,3 % ga kamaygan.

Shuningdek, 2019- yilda eng yuqori ishlab chiqarish yanvar oyida kuzatilib 144 donani tashkil etdi.





Ishlab chiqaradigan sanoatda, yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-may	2020- yil yanvar-may	Farqi +/-
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo‘yoqlar va laklar, t.	6 261,3	4 796,2	-1 465,1
Portlandsement, ming t.	3 795,4	3 764,0	-31,4
Tamaki mahsulotlari, mln. dona	4 579,0	4 154,0	-425,0
Dizel yoqilg‘isi, ming t.	437,4	461,6	24,2
Avtomobil benzini, ming t.	389,0	441,3	52,3
Traktorlar, dona	338,0	623,0	285

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan, ammoniy sulfat (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan 111,9 %), kaliy xlorid (102,2 %) hamda kaustik soda (3,0 m.) mahsulotlarida o‘shish ko‘rsatkichlari qayd etildi.

Shuningdek, metil spirti (2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 42,2 %), akril va vinilpolimerlari asosidagi bo‘yoq va lak (76,6 %) mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida pasayish kuzatildi.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11 trln. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (8,4 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 13,0 % ga oshganligi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-may	2020- yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektroenergiya, <i>mln.kVt/s</i>	26 090,2	26 193,5	103,3
Issiqlik energiyasi, <i>ming gkal</i>	13 971,9	13 595,4	-376,5
Ko‘mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo‘lgan gaz, <i>ming kub. m.</i>	125 412,0	126 647,0	1 235,0



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,8 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-may	2020- yil yanvar-may	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	77 021,1	69 655,7	-7 365,4
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	135,6	153,0	17,4
To'qimachilik chiqindilari, t	5 294,5	5 532,4	237,9

O'tgan yilning mos davriga nisbatan to'qimachilik chiqindilari 4,5 % ga, hamda axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 12,8 % ga oshganlik kuzatildi, shuningdek, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 9,6 % ga pasayish kuzatildi.



Iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 40,3 trln.so‘mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 1,9 % ga o‘sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 30,5 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yil yanvar-may oylarida iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarning ulushi 64,4 % dan 64,2 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 6,6 % (2019- yil yanvar-may oylarida 7,0 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Andijon viloyatiga to‘g‘ri kelib, 25,6 % ni, shuningdek, Toshkent shahri 18,4 % ni, Toshkent viloyati 10,0 % ni, Samarqand viloyati 8,1 % ni hamda Farg‘ona viloyati 6,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘shish sur‘atida respublika o‘shish sur‘ati (101,9 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Xorazm (109,9 %), Andijon (107,9 %), Farg‘ona (102,4 %) viloyatlarida, Toshkent shahrida (106,3 %) hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida (105,3 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020- yilning yanvar-may oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
O'zbekiston Respublikasi*	40 281,2	100,0	101,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	904,1	2,2	105,3
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	10 314,6	25,6	107,9
Buxoro	2 086,6	5,2	97,2
Jizzax	766,3	1,9	97,0
Qashqadaryo	1 484,9	3,7	97,1
Navoiy	1 334,8	3,3	102,2
Namangan	1 743,7	4,3	94,2
Samarqand	3 277,9	8,1	88,0
Surxondaryo	688,0	1,7	101,8
Sirdaryo	924,5	2,3	86,2
Toshkent	4 029,8	10,0	105,0
Farg'ona	2 502,7	6,2	102,4
Xorazm	2 244,5	5,6	109,9
Toshkent sh.	7 392,4	18,4	106,3

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Toshkent shahriga to'g'ri kelib, 21,6 %, shuningdek, Toshkent viloyati 15,7 % ni, Samarqand viloyati 8,8 % ni, Andijon viloyati 6,3 % ni hamda Farg'ona viloyati 7,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona viloyati (104,9 %), Namangan viloyati (108,5%), Surxondaryo viloyati (111,0 %) hamda Toshkent shahrida (113,0 %) qayd etildi.

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020- yilning yanvar-may oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
O'zbekiston Respublikasi*	14 425,0	100,0	102,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	620,1	4,3	112,8
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	910,5	6,3	101,8
Buxoro	805,9	5,6	103,6
Jizzax	301,1	2,1	104,5
Qashqadaryo	962,4	6,7	97,2
Navoiy	554,4	3,8	102,7
Namangan	726,9	5,0	108,5
Samarqand	1 272,9	8,8	89,5
Surxondaryo	395,1	2,7	111,0
Sirdaryo	384,5	2,7	82,4
Toshkent	2 260,2	15,7	110,1
Farg'ona	1 006,0	7,0	104,9
Xorazm	525,3	3,6	86,3
Toshkent sh.	3 113,3	21,6	113,0

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Andijon viloyatiga to'g'ri kelib, 36,4 % ni, shuningdek, Toshkent shahri 16,5 % ni, Samarqand viloyati 7,8 % ni, Farg'ona viloyati 5,8 % ni hamda Xorazm viloyati 6,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Qoraqalpog'iston Respublikasi (91,9 %) Xorazm (120,0 %), Navoiy (101,8 %), Farg'ona (100,8 %) viloyatlarida hamda Toshkent (101,9 %) shahrida qayd etildi.

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020- yilning yanvar-may oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
O'zbekiston Respublikasi	25 856,2	100,0	101,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	284,0	1,1	91,9
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	9 404,2	36,4	108,5
Buxoro	1 280,7	5,0	93,5
Jizzax	465,1	1,8	92,6
Qashqadaryo	522,6	2,0	96,9
Navoiy	780,3	3,0	101,8
Namangan	1 016,9	3,9	86,1
Samarqand	2 005,0	7,8	87,1
Surxondaryo	292,9	1,1	91,6
Sirdaryo	540,0	2,1	89,2
Toshkent	1 769,6	6,8	99,1
Farg'ona	1 496,6	5,8	100,8
Xorazm	1 719,2	6,6	120
Toshkent sh.	4 279,0	16,5	101,9



**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 31,5 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 23,9 % ni tashkil etdi.



O'zbekiston Respublikasi hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari

	2020- yil yanvar-may mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
O'zbekiston Respublikasi*	131 948,6	97,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5 462,3	103,5
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	13 684,0	105,7
Buxoro	6 712,7	100,3
Jizzax	1 993,2	101,9
Qashqadaryo	5 140,9	92,4
Navoiy	22 894,7	102,4
Namangan	3 523,4	103,1
Samarqand	5 719,4	83,4
Surxondaryo	1 868,7	107,1
Sirdaryo	2 901,7	93,4
Toshkent	22 303,9	100,2
Farg'ona	7 454,3	96,5
Xorazm	3 581,4	102,7
Toshkent sh.	22 518,2	99,6


* Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda



O‘zbekiston Respublikasi hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘shish sur‘ati % da

Respublika sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishiga, Samarqand (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan 83,4%), Qashqadaryo 92,4 %), Sirdaryo (93,4 %), Toshkent (100,2 %), Farg‘ona (96,5 %) viloyatlarida hamda Toshkent (99,6 %) shahrida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.

Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, % da




Iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o‘shish sur‘ati, % da



Iste‘mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Xorazm (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan 109,9 %), Farg‘ona (102,4 %), Surxondaryo (101,8 %), Andijon (107,9 %), Navoiy (102,2%), viloyatlarida, Toshkent shahrida (106,3 %), hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida (105,3 %) sezilarli darajada oshdi.



**O'zbekiston Respublikasi jami sanoat
mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**



Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Toshkent shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 17,1 %), Toshkent (16,9 %), Navoiy (17,4 %), Andijon (10,4 %), hamda Farg'ona (5,6 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Surxondaryo (1,4 %) hamda Jizzax (1,5 %) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Navoiy (22 922,2 ming so'm), Toshkent (7 569,1 ming so'm), Andijon (4 366,7 ming so'm) viloyatlarida Toshkent shahrida (8 730,4 ming so'm), o'rtacha Respublika darajasi ko'rsatkichidan (3 884,2 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Respublika bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 185,8 ming so'm bo'lgani holda, Toshkent shahrida – 2 866,0 ming so'mni, Andijon viloyatida – 3 291,5 ming so'mni, Toshkent viloyatida – 1367,6 ming so'mni, Navoiy viloyatida 1 336,4 ming so'mni, Xorazm viloyatida 1 200,7 ming so'mni tashkil etdi.




**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
(2020- yil yanvar-may oylarida, ming so'm)

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
O'zbekiston Respublikasi	3 884,2	1 185,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 873,2	475,6
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	4 366,7	3 291,5
Buxoro	3 484,4	1 083,1
Jizzax	1 438,8	553,1
Qashqadaryo	1 564,0	451,8
Navoiy	22 922,2	1 336,4
Namangan	1 251,0	619,1
Samarqand	1 472,2	843,7
Surxondaryo	709,2	261,1
Sirdaryo	3 421,8	1 090,2
Toshkent	7 569,1	1367,6
Farg'ona	1 983,1	665,8
Xorazm	1 915,9	1 200,7
Toshkent sh.	8 730,4	2 866,0



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2020- yil yanvar-may oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 28,7 trln. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 21,7 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Jizzax viloyatida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 47,2 %), Toshkent shahrida (34,8 %), Namangan (39,6 %), Samarqand (39,1 %), Surxondaryo (39,8 %), Farg'ona (32,7 %) viloyatlarida kuzatildi.


Respublikamiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Navoiy (6,3 %), Andijon (17,0 %) va Toshkent (15,6 %) viloyatlarida hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida (18,4 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




Respublikada ro‘yxatdan o‘tgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2020- yil 1- iyun holatiga ko‘ra)

Bugungi kunda respublikada 78,8 mingta sanoat korxonalari ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, shundan 15,5 mingtasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 19,7 % i) Toshkent shahriga, 8,1 mingtasi (10,3 %) Farg‘ona viloyatiga, 9,0 mingtasi (11,5 %) Toshkent viloyatiga, 8,2 mingtasi (10,4 %) Andijon viloyatiga, , 6,6 mingtasi (8,3 %) Samarqand viloyatiga, 5,9 mingtasi (7,5 %) Namangan viloyatiga to‘g‘ri kelmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda



Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar soni, birlikda




2020- yil yanvar-may oyida respublikada 7451 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 734 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 9,9 %) Toshkent shahrida, 591 tasi (7,9 %) Toshkent viloyatida, 1183 tasi (15,9 %) Andijon viloyatida, 506 tasi (6,8 %) Xorazm viloyatida, 598 tasi (8,0 %) Samarqand viloyatida hamda 498 tasi (6,7 %) Farg‘ona viloyatida tashkil etildi.




Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari
(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra)

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 10 taligida Andijon (2 785 ta), Namangan (2376 ta), Samarqand (1431 ta), Qo'qon (1 347 ta) shaharlari hamda Toshkent shahrining Olmazor (2 045 ta), Chilonzor (1 873 ta), Uchtepa (1 796 ta), Yunusobod (1 615 ta), Shayxontoxur (1 336 ta) Sirg'ali (1 279 ta) tumanlari qayd etildi.

Respublika miqyosida eng ko'p sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 10 taligi
(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra)



Respublika miqyosida eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 10 taligi
(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra)



2020- yilning 1- may holatiga ko'ra Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 10 taligiga esa Sirdaryo viloyati Shirin (44 ta) shahri hamda Sardoba tumani (60 ta); Navoiy viloyati Tomdi tumani (48ta); Jizzax viloyati Yangiobod tumani (57 ta); Qoraqalpog'iston Respublikasi Kegeyli (60 ta), Qanliko'l (56 ta), Taxtakopir (54 ta) hamda Bo'zatov tumanlari (16 ta); shuningdek, Surxondaryo viloyati Bandixon tumani (23 ta) qayd etildi.

Sanoat statistikasi
boshqarmasi
Tel.: (71) 230-80-46